Y. Orlovskiyning voyaga yetmagan shaxslarni mehnat munosabatlarida alohida himoyaga muhtoj subyekt sifatida baholash hamda bolalar mehnatiga oid huquqiy cheklovlarni mehnat

erkinligini cheklash emas, balki bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy kafolat sifatida talqin qilishiga qoʻshilish mumkin. Chunki xalqaro mehnat huquqida ham bolalar mehnatiga nisbatan oʻrnatilgan cheklovlar mehnat qilish huquqini inkor etish uchun emas, balki bolaning sogʻligʻi, xavfsizligi va taʼlim olish huquqini taʼminlash uchun joriy etilgan.

Fikrimizcha, mazkur yondashuv Xalqaro mehnat tashkilotining 138-sonli va BMTning "Bola huquqlari toʻgʻrisida"gi konvensiyalari mazmuniga ham toʻliq mos keladi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda mazkur fikrni yanada kengaytirish lozim. Chunki hozirgi kunda bolalar mehnati nafaqat anʼanaviy mehnat munosabatlarida, balki raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn xizmatlar sohasida ham namoyon boʻlmoqda. Shu sababli bolalarni mehnat munosabatlarida himoya qilish mexanizmlari ham yangi iqtisodiy munosabatlarni qamrab olishi zarur.

Qozogʻistonlik olima A. Nurmagambetova (2022) mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlik sharoitida bolalar mehnatining yashirin shakllari paydo boʻlishi mumkinligini qayd etadi. Uning fikricha, raqamli iqtisodiyot va oilaviy tadbirkorlik sohasida bolalar mehnatidan foydalanish xavflarini huquqiy jihatdan tartibga solish zarur. A. Nurmagambetovaning mehnat migratsiyasi, norasmiy bandlik va raqamli iqtisodiyot sharoitida bolalar mehnatining yashirin shakllari paydo boʻlayotganligi haqidagi fikrini toʻliq qoʻllab-quvvatlash mumkin. Chunki xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar ham bolalar mehnatining anʼanaviy shakllari qisqarayotgan boʻlsa-da, uning yangi va nazorat qilish qiyin boʻlgan shakllari yuzaga kelayotganligini koʻrsatmoqda. Muallif fikricha, mazkur olimning qarashi ayniqsa Oʻzbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Sababi, mamlakatda raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat va oilaviy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi voyaga yetmaganlarning mehnat faoliyati bilan bogʻliq yangi huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmoqda. Biroq olim fikrini rivojlantirgan holda taʼkidlash lozimki, muammo faqat huquqiy tartibga solish bilan hal boʻlmaydi. Bolalar mehnatining yashirin shakllarini aniqlash va oldini olish uchun davlat nazorati, taʼlim muassasalari, mahalla institutlari va fuqarolik jamiyati institutlarining oʻzaro hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqshunos olim A. Saidov (2020) inson huquqlari tizimida bola huquqlarini taʼminlash davlatning konstitutsiyaviy majburiyati ekanligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya normalarini milliy qonunchilikka samarali implementatsiya qilish bolalar mehnatiga qarshi kurashishning muhim huquqiy mexanizmi hisoblanadi. A. Saidovning bola huquqlarini taʼminlash davlatning konstitutsiyaviy majburiyati ekanligi haqidagi fikri ham muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha. bolalar mehnatiga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlishi lozim deb hisoblaymiz.

Oʻzbekistonlik huquqshunos olim Sh. Gulyamov (2022) mehnat sohasida raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilib, raqamli platformalar orqali mehnat qilish munosabatlarida voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilish boʻyicha maxsus huquqiy mexanizmlarni shakllantirish zarurligini qayd etadi.

Mazkur olimning raqamli iqtisodiyot sharoitida voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilish boʻyicha maxsus huquqiy mexanizmlarni shakllantirish zarurligi haqidagi fikrini qoʻllab-quvvatlash mumkin. Chunki raqamlashtirish jarayonlari natijasida mehnat munosabatlarining yangi shakllari, jumladan, platformada bandlik, blogerlik faoliyati, kontent yaratish, frilans va onlayn xizmatlar koʻrsatish kabi faoliyat turlari keng tarqalmoqda. Mazkur sohalarda voyaga yetmagan shaxslar ham ishtirok etayotgan boʻlsa-da, ularning huquqiy maqomi, mehnat qilish shartlari, ish vaqti, daromadlari va ijtimoiy himoyasiga oid masalalar milliy qonunchilikda yetarli darajada tartibga solinmagan.

Yuqoridagi olimlarning qarashlari tahlili shuni koʻrsatadiki, bolalar mehnatiga qarshi kurashishning samarali mexanizmi faqat huquqiy taqiqlar bilan emas, balki taʼlim, ijtimoiy muhofaza, davlat nazorati va xalqaro standartlarni milliy huquq tizimiga samarali joriy etish orqali taʼminlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda amalga oshirilgan mehnat sohasidagi islohotlar bolalar huquqlarini taʼminlashning xalqaro standartlarga mos milliy modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti va YUNISEFning 2024-yil uchun eng soʻnggi baholashlariga koʻra, 2020-yilda bolalar mehnatiga jalb qilingan bola-

lar soni ishlayotgan barcha bolalarning taxminan 68,5 %ini yoki mutlaq raqamlarda 168 million nafarni tashkil etgan (U.S. Department of Labor, Bureau of International Labor Affairs 2021). Ushbu tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, ularning aksariyati 70 %i qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilmoqda. Qolgan qismi xizmat ko'rsatish va sanoat sohalari hissasiga to'g'ri kelib, mos ravishda 20 va 10 %ni tashkil etadi. Shu bilan birga, xavfli mehnat turlarida band bo'lgan bolalar soni 79 million nafarga yetgan.

Mazkur ko'rsatkichlarni XMT hamda "Walk Free" nodavlat tashkiloti tomonidan 2016-yilda taqdim etilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash so'nggi yillarda vaziyat salbiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, majburiy mehnatga jalb qilingan bolalar soni 8 million nafarga, xavfli mehnat turlarida ishlayotgan bolalar soni esa 6 million nafarga oshgan (United Nations, 2017). Holbuki, 2000–2016-yillar oralig'ida bolalar mehnati ko'lamining barqaror qisqarishi kuzatilgan bo'lib, ushbu davrda bunday voyaga yetmaganlar soni 94 million nafarga kamaygani XMT ma'lumotlarida qayd etilgan (United Nations, 2021).

Albatta, COVID-19 pandemiyasi mazkur vaziyatning yanada og'irlashishiga sabab bo'ldi. Biroq YUNISEF rahbari Genritta For ta'kidlaganidek, pandemiya "allaqachon og'ir bo'lgan vaziyatni yanada kuchaytirdi" (CBS News, 2021). Hozirgi vaqtda aniq statistik ma'lumotlar mavjud emas. Biroq global lokdaunlar saqlanib qolgan taqdirda "yana 9 million bola bolalar mehnatiga jalb qilinishi mumkinligi" haqida prognozlar bildirilgan.

Bolalar majburiy mehnati keng tarqalgan hududlar haqida so'z yuritganda, birinchi navbatda Afrika qit'asi, xususan Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlarni qayd etish lozim. Ushbu hududda bolalarning 26 %i mehnatga jalb qilingan. Umuman olganda, qit'ada bolalar mehnatiga jalb qilinganlar soni 92 million nafarni tashkil etadi. Ikkinchi o'rinda 49 million nafar ko'rsatkich bilan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi turadi (5,6 %). Uchinchi o'rinni Yevropa va Markaziy Osiyo hamda Amerika mintaqalari bo'lishib olgan bo'lib, har birida 8,3 million nafardan bola mehnat qilmoqda. Eng past ko'rsatkich arab davlatlarida kuzatilib, bu yerda bolalar mehnatiga jalb qilinganlar soni 2,9 million nafarni tashkil etadi (CBS News, 2021).

O'zbekiston Respublikasi misolida olib qaraganda mehnat qilish layoqatiga ega bo'lgan voyaga etmaganlar umumiy soni 2,5 milliondan ortiqni tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda voyaga etmaganlarning mehnatiga oid qonunchilikni takomillashtirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning fuqarolik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda mulkiy huquqlari bilan bir qatorda mehnat huquqlarini ham amalga oshirishini ta'minlash, shuningdek, bolalar mehnatining eng yomon shakllarini samarali bartaraf etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish naqadar dolzarb vazifa ekanligi ayon bo'ladi (Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan, 2026).

Shu bilan birga, yurtimizda yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini, adolatli mehnat sharoitlarida mehnat qilish huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mazkur sohada amalga oshiriladigan ishlarning huquqiy asosi sifatida o'tgan yillar davomida, jumladan, 1994-yil 29-iyulda "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi (United Nations, 1994), 2008-yilda Xalqaro mehnat tashkilotining bolalar mehnati bilan bog'liq "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida"gi (International Labour Organization, 1973) hamda "Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risida"gi fundamental konvensiyalari ratifikatsiya qilganligini (International Labour Organization, 1999), shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi (Republic of Uzbekistan, 2020), "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (Republic of Uzbekistan, 2008), "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi kabi qonunlarning qabul qilinganligini keltirish mumkin (Republic of Uzbekistan, 2016).

Bolalar mehnatini huquqiy tartibga solish sohasida xalqaro huquq muhim o'rin tutadi. Xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilingan konvensiyalar davlatlar uchun asosiy majburiyatlarni belgilab beradi.

138-sonli konvensiyaga ko'ra, mehnatga qabul qilishning minimal yoshi umumiy holatda majburiy ta'limni tugatish yoshidan past bo'lmasligi kerak. 182-sonli konvensiya esa bolalar mehnatining eng og'ir shakllarini zudlik bilan tugatish choralarini ko'rishni talab etadi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari toʻgʻrisida"gi konvensiyasida har bir bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan himoya qilinishi, uning taʼlim olish va sogʻlom rivojlanish huquqi kafolatlangan.

Xalqaro amaliyotda bolalar mehnatiga qarshi kurashishda quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyatga ega:

milliy monitoring tizimini shakllantirish;

mehnat inspeksiyasi faoliyatini kuchaytirish;

aholi oʻrtasida huquqiy targʻibot ishlarini olib borish;

taʼlimning ommaviyligini taʼminlash;

ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirish.

Oʻzbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yoʼnalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat Konstitutsiyasida bolalarning huquq va erkinliklari kafolatlangan boʻlib, mehnat sohasida ham alohida muhofaza choralari belgilangan. Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, mehnat shartnomasi tuzishning minimal yoshi 16 yosh etib belgilangan. Ayrim holatlarda ota-ona yoki vasiyning roziligi bilan 15 yoshdan mehnat faoliyatiga ruxsat berilishi mumkin. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarni ogʻir, zararli va xavfli mehnat turlariga jalb qilish qatʼiy taqiqlanadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatda paxta yigʻim-terimi jarayonida bolalar mehnatidan foydalanish holatlarini bartaraf etish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirildi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda monitoring ishlari olib borildi va bu sohada ijobiy natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, norasmiy sektorda bolalar mehnatidan foydalanish, ayrim xizmat koʻrsatish sohalarida nazoratning yetarli emasligi kabi muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa sohada huquqni qoʻllash amaliyotini yanada takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi.

Bolalar mehnatini xalqaro va milliy huquqiy-meʼyoriy hujjatlar orqali samarali tartibga solish uning eng ogʻir shakllarini bartaraf etish hamda bolalarning toʻlaqonli rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni taʼminlash masalasini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida bolalar mehnatiga oid xalqaro-huquqiy normalarning mazmuni, ularning Oʻzbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga kiritilish jarayoni hamda amaliy tatbiqi oʻrganiladi. Shu bilan birga, maqolada Xalqaro mehnat tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar mehnatini bartaraf etish borasidagi faoliyati, xususan, XMTning 138-sonli "Mehnat uchun eng kam yosh toʻgʻrisida"gi hamda 182-sonli "Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularni bartaraf etish boʻyicha shoshilinch choralar toʻgʻrisida"gi konvensiyalarining mazmuni, maqsadi hamda ularning Oʻzbekiston qonunchiligi va amaliyotiga taʼsiri tahlil qilinadi. Bolalar mehnati insoniyat tarixining ajralmas qismi sifatida uzoq davrlardan beri mavjud boʻlsa-da, bu masala 1980-yillarning oʻrtalarida yana dolzarb tus olib, keng jamoatchilik muhokamasiga sabab boʻldi (Republic of Uzbekistan, 2016). Oʻsha yillarda ommaviy axborot vositalarining faol yoritishi va maʼlumot almashinuvi kengaygani tufayli rivojlangan davlatlar jamoatchiligi shuni anglab yetdiki, Gʻarbdagi sanoat inqilobi davrida bolalar mehnatini aks ettirgan qora-oq suratlar bugungi kunda dunyoning boshqa hududlarida ham faqat rangli koʻrinishda takrorlanmoqda (Fyfe, 2007).

Biroq bu masalaga dastlabki munosabatlar hissiyotlarga asoslangan va yetarlicha muvofiqlashtirilmagan edi. Muammoni bartaraf etish jarayoniga turli subyektlar: nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, xalqaro kompaniyalar, hukumatlar, xalqaro institutlar jalb qilindi. Fuqarolik jamiyati tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar esa koʻpincha davlat va xalqaro tashkilotlarning keyingi amaliy harakatlariga asos boʻlib xizmat qildi.

Shuningdek, davlatning faol yordamisiz ham xususiy tashabbuslar, masalan, mahsulotlarga "bolalar mehnatisiz ishlab chiqarilgan" yorliqlari qoʻyish tizimlari yoki korporatsiyalarning axloqiy kodekslari keng tarqala boshladi. Faqat maʼlum vaqt oʻtib, boshqa xalqaro tashkilotlar va hamkorlar turtkisi bilan Xalqaro mehnat tashkiloti oʻz tajribasiga tayanib, yangi strategiyani ishlab chiqdi hamda bolalar mehnatiga qarshi global kurashda yetakchi mavqeni egalladi.

Dastlabki bosqichlarda XMTning bu sohadagi faoliyati asosan mehnat sohasida xalqaro standartlarni belgilash bilan bogʻliq boʻlgan. Asosiy eʼtibor bolalarni ishga qabul qilish uchun eng kam yoshni belgilashga qaratilgan edi. Tashkilot tomonidan qabul qilingan dastlabki konvensiyalar sanoat, qishloq xoʻjaligi, dengizchilik, baliqchilik va yerosti ishlari kabi ayrim sohalarga oid boʻlgan. 1973-yilda esa ushbu sohalardagi meʼyorlar

yagona hujjat "Ishga qabul qilish uchun eng kam yosh to'g'risida"gi 138-sonli konvensiya bilan birlashtirildi.

Mazkur konvensiya nafaqat umumiy yosh chegarasini belgilab berdi, balki rivojlanmagan davlatlar tomonidan uni ratifikatsiya qilishni osonlashtirish uchun ayrim moslashuvchan normalarni ham o'z ichiga oldi. Shunga qaramay, XMT a'zolarining bir qismi bu hujjatni G'arb dunyosi ehtiyojlari va madaniy an'analariga haddan tashqari moslashgan, nomutanosib deb hisoblagan. Natijada konvensiyani ratifikatsiya qilish jarayoni bir necha yil davomida sekinlashib, XMTning bolalar mehnatiga qarshi faoliyati qiyinchiliklarga uchradi.

Faqat 1990-yillarda jamoatchilik e'tiborida bolalar mehnati muammosi yana dolzarb mavzuga aylangach bu yo'nalishdagi yondashuv o'zgarishni boshladi. 1995-yilda Kopengagenda o'tkazilgan BMTning "Butunjahon ijtimoiy sammiti"da davlatlar rahbarlari ishchilarning asosiy huquq va manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalariga hurmat bilan yondashish va ularni ilgari surish majburiyatini o'z zimmasiga oldilar (Basu & Tzannatos, 2003). "Kopengagen ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha deklaratsiya"si matnida bolalar mehnatiga oid konvensiyalar aniq tarzda tilga olingan bo'lib, ular kasaba uyushmalarini tuzish erkinligi, jamoaviy muzokaralar olib borish huquqi hamda kamsitmaslik tamoyili haqidagi konvensiyalar bilan bir qatorda qayd etilgan.

Xuddi shunday, 1998-yilda Xalqaro mehnat konferensiyasi tomonidan qabul qilingan "Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risida"gi deklaratsiyada bolalar mehnatini butunlay tugatish masalasi tashkilotning to'rtta asosiy tamoyillaridan biri sifatida mustahkamlandi. Ushbu tamoyillar tarkibiga kasaba uyushmalari erkinligini ta'minlash va jamoaviy muzokaralar olib borish huquqi, majburiy mehnatni bekor qilish hamda mehnat jarayonida kamsitishni bartaraf etish masalalari ham kiritilgan edi. Natijada Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar ular tegishli konvensiyalarni ratifikatsiya qilganmi yoki yo'qmi, baribir bu tamoyillarga rioya etish majburiyatiga ega bo'ldilar.

Mazkur deklaratsiya XMT faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi va tashkilot ishida ustuvor yo'nalishlarni shakllantirdi. Aynan shu yo'nalishlar natijasida 1999-yilda "Bolalar mehnatining eng og'ir shakllarini bartaraf etish to'g'risida"gi 182-sonli konvensiya qabul qilindi. Ushbu hujjat 138-sonli "Eng kam yosh to'g'risida"gi konvensiyani o'zgartirmasdan, balki uni to'ldirish maqsadida yaratilgan bo'lib, unda bolalar mehnatining darhol tugatilishi zarur bo'lgan to'rtta eng xavfli shakli aniq belgilab qo'yilgan.

Aslida ustuvor yo'nalishlarni belgilash jarayoni ko'plab tanqidlarga sabab bo'ladi. Chunki bu yondashuv bir guruh masalalarni muhim deb e'tirof etar ekan, boshqalarini esa ikkinchi darajali sifatida ko'rsatadi. Shu sababli "Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risida"gi deklaratsiyaning mazmuni Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarining faqat to'rtta "asosiy" tamoyilga kirmaydigan qismlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning huquqiy kuchini zaiflashtirishi mumkin, degan fikrlar bildirilgan (United Nations, 1995). Biroq bolalar mehnati masalasiga doir 182-sonli konvensiyaning qabul qilinishi o'z davrida nihoyatda katta va tarixiy ahamiyatga ega natijalarni keltirib chiqardi. Avvalo, bu hujjat dunyo miqyosida bolalar mehnatiga qarshi yagona pozitsiyani shakllantirib, xalqaro hamjamiyat o'rtasida umumiy kelishuvga erishishga imkon berdi. Shu bilan birga, u Xalqaro mehnat tashkilotining bu sohadagi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. 182-sonli konvensiya barcha a'zolar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi va qisqa vaqt ichida XMTga a'zo deyarli barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilindi. Mazkur jarayon 138-sonli "Ishga qabul qilish uchun eng kam yosh to'g'risida"gi konvensiyaga ham qiziqishni kuchaytirdi, natijada u ham ko'plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilindi. Bugungi kunda 182-sonli konvensiyaga 165 ta, 138-sonli konvensiyaga esa 150 ta davlat qo'shilgan. Eng e'tiborlisi, ushbu jarayon donor mamlakatlarning e'tiborini yana bolalar mehnatini tugatish masalasiga qaratdi va bu yo'nalishga sezilarli moliyaviy resurslar yo'naltirildi.

Amaliy nuqtayi nazardan, 1992-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan Bolalar mehnatini tugatish bo'yicha xalqaro dastur IPEC (International Programme on the Elimination of Child Labour) tashkil etilishi bu yo'nalishda muhim burilish bo'ldi. 450 dan ortiq xodim va yillik 60 million AQSH dollari atrofidagi byudjetga ega bo'lgan

IPEC nafaqat XMTning eng yirik dasturi, balki bolalar mehnatiga qarshi hamkorlikni amalga oshiruvchi eng muhim xalqaro mexanizmlardan biriga aylandi (Alston, 2004). "Bolalar mehnatiga barham berish" bo'yicha mazkur xalqaro dastur (IPEC) a'zo davlatlarga tegishli xalqaro hujjatlar doirasidagi majburiyatlarini bajarishda yordam berish, bolalar mehnatini bosqichma-bosqich tugatish hamda eng og'ir shakllarini bartaraf etishni ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirish vazifasini bajaradi. Dastur doirasida olib boriladigan ishlar targ'ibot va xabardorlikni oshirish, hukumatlar bilan texnik hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda mintaqaviy, submintaqaviy va milliy miqyosdagi loyihalar orqali bolalarga amaliy yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Tillabayev va Xamdamovaning fikricha, "xalqaro huquq bolalar mehnatini bartaraf etish uchun yetarli huquqiy asosni shakllantirgan" (Tillabaev & Khamdamova, 2015). Biroq mazkur qarashni to'liq qabul qilish mushkul. Sababi, xalqaro konvensiyalar va huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, dunyoda bolalar mehnati hanuz keng tarqalganligicha qolmoqda. Bu esa muammo faqat normativ-huquqiy bazaning mavjudligi bilan emas, balki uning amaliy ijrosi, davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy sharoitlar bilan ham bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

S.A. Musoyevaning fikriga ko'ra, bolalar mehnatiga qarshi kurashda huquqiy normalarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega (Musoeva, 2026). Biroq muallifning mazkur fikrini qisman qo'llab-quvvatlagan holda qayd etish lozimki, faqat huquqiy normalarning qabul qilinishi bolalar mehnatini to'liq bartaraf etish uchun yetarli emas. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim davlatlarda xalqaro konvensiya va milliy qonunchilik normalari mavjud bo'lsa-da, ularning ijrosini ta'minlash mexanizmlari yetarli darajada samarali ishlamayapti. Bundan tashqari, voyaga yetmagan xodimlarga kamida 30 kalendar kunlik yillik mehnat ta'tili beriladi va mehnat shartnomasini bekor qilishda qo'shimcha kafolatlar belgilangan. Umuman, mazkur normalar voyaga yetmaganlarni mehnat munosabatlarining oddiy ishtirokchisi emas, balki alohida huquqiy himoyaga muhtoj subyekt sifatida e'tirof etishini ko'rsatadi. Ular xizmat safariga, tungi, bayram va dam olish kunlaridagi ishlarga, shuningdek, ish vaqtidan tashqari mehnatga jalb etilmaydi. Bunday xodimlarga kamida 30 kalendar kunlik yillik ta'til beriladi, ishlab chiqarish normalari esa qisqartirilgan ish vaqtiga mos ravishda belgilanadi. Ish haqi to'lashda ham ular uchun qo'shimcha kafolatlar nazarda tutilgan. Shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilishda mahalliy mehnat organining roziligi talab etiladi. Ayrim hollarda esa ota-ona yoki vakolatli organlar shartnomani bekor qilishni talab qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida bolalar mehnatini xalqaro-huquqiy tartibga solish sohasida bir qator nazariy va amaliy muammolar mavjudligi aniqlandi.

Avvalo, xalqaro huquq va milliy qonunchilikda "bolalar mehnati" tushunchasining mazmuni bir xil talqin qilinmasligi muayyan ilmiy bahslarni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida bolalar mehnati asosan bolaning jismoniy, ma'naviy yoki intellektual rivojlanishiga zarar yetkazuvchi mehnat sifatida baholansa, milliy qonunchilikda mehnat qilish uchun ruxsat etilgan yosh va mehnat sharoitlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Natijada bolalar mehnati va voyaga yetmagan shaxslarning qonuniy mehnat faoliyati o'rtasidagi huquqiy chegaralarni aniq belgilash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro mehnat huquqida bolalar mehnatining eng og'ir shakllari aniq belgilangan bo'lsa-da, raqamli iqtisodiyot va platformada bandlik rivojlanishi natijasida vujudga kelayotgan mehnat munosabatlarining bolalar huquqlariga ta'siri yetarlicha tadqiq etilmagan. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik faoliyati, onlayn xizmatlar ko'rsatish va raqamli kontent yaratish jarayonida voyaga yetmaganlarning mehnatidan foydalanish holatlari xalqaro va milliy huquqda alohida huquqiy tahlilni talab qiladi.

Uchinchidan, bolalar mehnatiga qarshi kurashish sohasida xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalasida ilmiy yondashuvlar yagona emas. Ayrim olimlar xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka to'liq ko'chirish tarafdori bo'lsa, boshqalar milliy huquq tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa xalqaro normalarni milliy huquq tizimiga moslashtirishning huquqiy mexanizmini yanada chuqur o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, bolalar mehnatining oldini olish sohasida huquqiy kafolatlar va ularning

amaliy samaradorligi oʻrtasida muayyan tafovut mavjud. Oʻzbekistonda bolalar mehnatini taqiqlovchi huquqiy baza shakllangan boʻlishiga qaramasdan, mazkur normalarning amal qilish samaradorligini baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Beshinchidan, bolalar mehnatini inson huquqlari va mehnat huquqi nuqtayi nazaridan baholash oʻrtasida nazariy yondashuvlar farq qiladi. Ayrim tadqiqotlarda mazkur masala mehnat munosabatlari sifatida tahlil qilinsa, boshqa tadqiqotlarda inson huquqlarini ta'minlashning tarkibiy qismi sifatida oʻrganiladi. Fikrmizcha, bolalar mehnati masalasini kompleks yondashuv asosida, ya'ni inson huquqlari va mehnat huquqining oʻzaro uygʻunligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Shu munosabat bilan, tadqiqot davomida aniqlangan mazkur muammolar bolalar mehnatini huquqiy tartibga solishning nazariy asoslarini takomillashtirish, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka samarali implementatsiya qilish hamda bolalar huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, bolalar mehnatiga qarshi kurashish va bolalar huquqlarini ta'minlash zamonaviy xalqaro mehnat huquqining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining 138-sonli "Ishga qabul qilish uchun eng kam yosh toʻgʻrisida"gi konvensiyasi hamda 182-sonli "Bolalar mehnatining eng ogʻir shakllarini taqiqlash va bartaraf etish toʻgʻrisida"gi konvensiyasi, shuningdek, BMTning "Bola huquqlari toʻgʻrisida"gi konvensiyasi bolalar mehnatini huquqiy tartibga solishning asosiy xalqaro standartlarini belgilab bergan.

Xalqaro hujjatlar talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan bogʻliq qator muammolar mavjud boʻlishiga qaramay, ta'kidlash lozimki, tahlillar natijasida Oʻzbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatlar talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishgani aniqlandi. Xususan, Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, "Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bolalar mehnatini taqiqlash, voyaga yetmaganlarni mehnat munosabatlarida alohida himoya qilish va ularning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan huquqiy kafolatlar mustahkamlangan.

Shu bilan birga, bolalar mehnatini huquqiy tartibga solish sohasida ayrim dolzarb muammolar saqlanib qolayotganligi aniqlandi. Jumladan, raqamli iqtisodiyot sharoitida bolalar mehnatining yangi shakllari vujudga kelayotganligi, platformada bandlik va internet muhitidagi mehnat munosabatlarining huquqiy maqomi aniq belgilanmaganligi, bolalar mehnatining yashirin shakllarini aniqlash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi kuzatildi.

Tadqiqot davomida xorijiy, MDH va milliy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni koʻrsatdiki, bolalar mehnatiga qarshi kurashishda faqat huquqiy taqiqlarning oʻzi yetarli emas. Bolalar huquqlarini samarali ta'minlash huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional chora-tadbirlarning oʻzaro uygʻunligi hamda kompleks qoʻllanilishini talab etadi. Fikrimizcha, Oʻzbekistonda bolalar mehnatini taqiqlash sohasida shakllangan huquqiy baza xalqaro standartlarga asosan mos keladi. Biroq globallashuv va raqamlashtirish sharoitida vujudga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar mazkur sohadagi huquqiy mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

*Ilmiy-nazariy takliflar*

1. Bolalar mehnati tushunchasining milliy qonunchilikdagi ta'rifini Xalqaro mehnat tashkilotining standartlari asosida takomillashtirish va uning huquqiy mezonlarini aniqlash zarur.

2. Bolalar mehnatini inson huquqlari va mehnat huquqining kesishuvida joylashgan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida oʻrganish boʻyicha yangi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish lozim.

3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bolalar mehnatining yangi shakllarini aniqlash va ularning huquqiy tabiatini oʻrganishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlarni koʻpaytirish maqsadga muvofiq.

*Qonunchilikni takomillashtirish boʻyicha takliflar*

4. Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga raqamli platformalar va internet orqali amalga oshiriladigan mehnat faoliyatida voyaga

yetmaganlarning mehnatidan foydalanish shartlarini tartibga soluvchi maxsus normalar kiritish maqsadga muvofiq.

5. Voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish lozim.

6. Bolalar mehnatining eng og'ir shakllarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha milliy monitoring tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarur.

*Amaliy takliflar*

7. Bolalar mehnatini aniqlash va oldini olish sohasida Bandlik vazirligi, Bolalar ombudsmani, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

8. Bolalar mehnatiga qarshi kurashish bo'yicha yagona elektron monitoring platformasini joriy etish va xavf guruhiga kiruvchi bolalar haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

9. Ota-onalar, ish beruvchilar va yoshlar o'rtasida bolalar mehnatining salbiy oqibatlari hamda xalqaro standartlar mazmuni bo'yicha huquqiy targ'ibot ishlarini kengaytirish zarur.

10. Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bolalar mehnatining yangi xavf shakllarini o'rganish va ularning oldini olishga qaratilgan qo'shma dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, mazkur takliflarning amalga oshirilishi O'zbekistonda bolalar mehnatiga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish, xalqaro majburiyatlarning to'liq bajarilishini ta'minlash hamda bolalar huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES


Alston, P. (2004). "Core labour standards" and the transformation of the international labour rights regime. *European Journal of International Law, 15*(3), 457–521.

Basu, K., & Tzannatos, Z. (2003). *The global child labor problem: What do we know and what can we do? (CAE Working Paper No. 03-06).* Center for Analytical Economics. https://hdl.handle.net/1813/11623

Basu, K., & Van, P. H. (1998). The economics of child labor. *The American Economic Review, 88*(3), 412–427.

CBS News. (2021, June 10). *"Wake-up call": World sees first rise in child labor in 20 years, U.N. says*. https://www.cbsnews.com/news/child-labor-rise-united-nations-report/

Fyfe, A. (2007). *The worldwide movement against child labour: Progress and future directions*. International Labour Office.

Gulyamov, Sh. Sh. (2022). *Raqamli iqtisodiyot sharoitida huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari [Issues of improving legal relations in the digital economy].* TSUL Publ.

International Labour Office. (2006). *IPEC action against child labour 2004–2005: Progress and future priorities*. International Labour Office.

International Labour Organization. (1973). *Convention No. 138 concerning minimum age for admission to employment*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/2756292

International Labour Organization. (1999). *Convention No. 182 concerning the prohibition and immediate action for the elimination of the worst forms of child labour*. Lex.uz https://lex.uz/docs/1584627

Liebel, M. (2004). *Working children as social subjects: The contribution of working children's organizations to social transformations*. Zed Books.

Musoeva, S. A. (2026). Mezhdunarodnye podkhody v borbe s detskim prinuditelnym trudom [International approaches to combating child forced labour]. *Bulletin of Science*, 1(94). https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnye-podhody-v-borbe-s-detskim-prinuditelnym-trudom

Nurmagambetova, A. S. (2022). Zashchita trudovykh prav nesovershennoletnikh v Respublike Kazakhstan [Protection of labour rights of minors in the Republic of Kazakhstan]. *KazNU Bulletin*, (4), 72–78.

Orlovskiy, Yu. P. (2021). *Trudovoe pravo Rossii [Labour law of Russia].* Yurayt.

Republic of Uzbekistan. (2008). *Law "On Guarantees of the Rights of the Child" (No. LRU-139).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/1297315

Republic of Uzbekistan. (2016). *Law "On State Youth Policy" (No. LRU-406).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/3026246

Republic of Uzbekistan. (2020). *Law "On Education" (No. LRU-637).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/5013007

Saidov, A. Kh. (2020). *Inson huquqlari: nazariya va amaliyot [Human rights: Theory and practice].* Baktria Press.

Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. (2026). *Statistical data on socio-economic indicators [SDMX data set].* SIAT Portal. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_607.pdf

Swepston, L. (1998). Human rights law and freedom of association: Development through ILO supervision. *International Labour Review, 137*(2), 169–194.

Tillabaev, M. A., & Khamdamova, F. U. (2015). Otsenka mezhdunarodno-pravovykh osnov po iskoreneniyu detskogo truda [Assessment of international legal foundations for the eradication of child labour]. *Eurasian Advocacy*, 1(14). https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-mezhdunarodno-pravovyh-osnov-po-iskoreneniyu-detskogo-truda

U.S. Department of Labor, Bureau of International Labor Affairs. (2021). *Eradication of the worst forms of child labor, forced labor and human trafficking worldwide.* Washington, DC. https://www.dol.gov/agencies/ilab

United Nations. (1994). *Convention on the Rights of the Child.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/2595913

United Nations. (1995). *Report of the World Summit for Social Development (A/CONF.166/9).* http://daccessdds.un.org/doc/UNDOC/GEN/N95/116/51/PDF/N9511651.pdf

United Nations. (2017). *Eradication of the worst forms of child labor, forced labor and human trafficking worldwide.* In *The global problem of child labor and modern slavery* (pp. 1–3). New York.

United Nations. (2021, June 9). *MOT: vpervye za poslednie 20 let v mire rezko vozroslo chislo rabotayushchikh detey [ILO: For the first time in the last 20 years, the number of working children in the world has risen sharply].* UN News. https://news.un.org/ru/story/2021/06/1404392

Valticos, N. (1979). *International labour law*. Kluwer Law and Taxation Publishers.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: https://dx.doi.org 10.51788/tsul.jurisprudence.6.3.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence